

## O‘ZBEK TEATRIDA ADABIY TIL ME’YORLARI

**Xomidov Isfandiyor Kamoliddin o‘g‘li**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

tayanch doktoranti

***Annotatsiya.** Maqolaning asosini o‘zbek teatrida adabiy til me‘yorlarining o‘rganilishi tashkil etib, sahnada qahramon tilidan yangrayotgan so‘zlarning shevadan holi, sof, aniq va tiniq, barcha uchun tushunarli ifoda etilishiga doir izlanishlarga qaratilgan. Maqolada aktyorning ijrosiga xizmat qiluvchi adabiy til me‘yorlari xususidagi muammolar va ularni bartaraf etish masalalari keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** o‘zbek teatri, til, adabiy til, adabiy til me‘yorlari, aktyor, sahna nutqi, sheva, she‘riy nutq, ritm, ohang, talaffuz, orfografiya, orfoepiya, artikulyatsiya, unli tovush, undosh tovush.*

***Аннотация.** В основу статьи положено исследование нормы литературного языка в узбекском театре. В статье представлены проблемы нормы литературного языка, обслуживающих игру актёра, и вопросы их устранения.*

***Ключевые слова:** узбекский театр, язык, литературный язык, нормы литературного языка, актёр, сценическая речь, диалект, поэтическая речь, ритм, интонация, произношение, орфография, орфоэпия, артикуляция, гласный звук, согласный звук.*

***Annotation.** The basis of the article is the study of the norms of the literary language in the Uzbek theater. The article presents the problems of literary language norms serving the actor’s performance and their elimination.*

***Key words:** uzbek theater, language, literary language, standarts of literary language, actor, stage speech, dialect, poetich speech, rhythm, tone, pronunciation, orthography, orthoepy, articulation, vowel sound, consonant sound.*

Kirish. Til insonlarning so‘zlashuv vositasi bo‘lib, har bir millatga xosdir. Uning badiiyligi avvalo yozuv orqali adabiyotda, so‘ng ijro orqali teatr sahnasida yangraydi. Sahnadan turib aytilgan so‘z omma uchun adabiy tilning eng oliy namunasidir. Chunki unda qahramonning millati, xarakteri, ijtimoiy kelib chiqishi, maqsadi ifoda etiladi. Til orqali spektakl voqealari qaysi davrda, qay yurtda kechayotgani tushunilsa, nutq orqali insonlarning munosabatlari aks ettiriladi. Misol uchun, Navoiy kabi ulug‘ zotlar haqidagi spektakllarda she‘riy nutqning ustunlik qilishi dramaturglar (I.Sulton va Uyg‘un) tomonidan tilga, undagi ritmgga, ohangga e‘tibor qaratilganidandir. Bu bejiz emas, boisi, Navoiyning sifatlarini aks ettirish va

u yashagan davrning talabini inobatga olgan holda yondashilgan. Shuning uchun ham spektaklda bironta maishiy soʻzni uchratmaysiz. Maishiylik haqida gap ketganda, “Chimildiq” spektaklini (dramaturg E.Xushvaqtoʻv, rejissorlar T.Azizov, M.Abdullyeva) misol qilish mumkin. Unda ham adabiy tilga boʻlgan talablarga aktyorlar (bosh qahramonlar A.Abduvahobov, M.Muxtorova) qatʼiy yondashgan. Har bir soʻzni adabiy til meʼyorlarida aytishga urinishgan va bu orqali spektaklning muvaffaqiyati taʼminlangan. Vaholanki, pyesa folklor-etnografik ruhda boʻlib, u Surxondaryo shevasiga xos til uslubida yozilgan. Koʻrib turganingizdek, oʻzbek teatrida adabiy til meʼyorlari juda nozik va dolzarb masaladir.

Asosiy qism. Jadidlarimiz oʻz islohotlarida teatni ibratxona deb bilganlar. Shunday ekan, adabiy til meʼyorlarining eng oliy namunasi sahnadagi aktyorlar tomonidan, qahramon tilidan jaranglashi zarur. Tomoshabin teatrdan ibrat olishini koʻzda tutib, tilimizning ifodasini, uning xususiyatlarini sahna sanʼati orqali singdirib boramiz. Teatrning ommabopligi, taʼsirchanligi bugun yoʻqolib borayotganday tuyulishi mumkin. Chunki unda xalqimizning adabiy tili, uning xususiyatlari aks etmayapti. Bunga shevachilik, soʻzlarni lahjada aytish, ohangga berilish kabi nuqsonlar sabab boʻlmoqda. Xatto, oʻzbek teatrining ilk sahna asari “Padarkush” pyesasida ham Samarqand shevasiga xos “ning” kelishigining “ni”, “da”ning “ga” kabi yozilganini uchratishimiz mumkin. [1.5-b.]

Behbudiy oʻzi samarqandlik boʻlgani uchun ham shunday yozgan. Qolaversa, u davr teatr olamida tashkil topish va izlanish davri edi. Behbudiy keyinchalik spektaklning qamrovi va yoyilishi uchun barcha hududga xos, tushunarli boʻlish talabini his etadi. Natijada, teatr tili barcha shevalarning eng yaxshi namunalarini oʻziga singdirgan, maʼlum bir meʼyorga tushgan boʻlishi zarurligini ilgari suradi. Bu fikr keyinchalik, matbuotda ham yuzaga chiqadi.

Oʻzbek teatrlarida oʻzbek tilida ijro etiladigan spektakllarning adabiy til meʼyorlari haqida gap ketganda, avvalo, shevalarga eʼtibor qaratish lozim. Soʻzni toshkentcha, andijoncha, buxorocha, fargʻonacha, namangancha, samarqandcha, xorazmcha va boshqa hududlarga xos shevada talaffuz etuvchi aktyorlar adabiy til ustida tinimsiz ishlashlari zarur. Misol uchun, tomoshabin “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Tohir va Zuhra” kabi lirik spektakllarda Farhodning Shiringa “togʻlar oshib yoningga borvomman” (toshkentcha), Majnunning Layliga “qadasan Layli?” (andijoncha), Tohirning Zuhraga “oshigʻing seni izlab kelutti” (namangancha) kabi talaffuzlarni eshitsu teatrga boshqa kelmaydi. Aksincha, adabiy tilda “togʻlar oshib yoningga borayapman”, “qayerdasan Layli?”, “oshigʻing seni izlab kelmoqda” tarzida eshitsu, aniqki, lirik spektaklni yana koʻrishga tomoshabinda ragʻbat paydo boʻladi.

Hududiy joylashuvning xarakterli jihatini aytib o‘tish o‘rinlidir. Ya’ni, shevalarda butun boshli so‘zlar ham o‘zgarib ketishi oqibatida “shevalarning lug‘at tarkibida ham ma’lum darajada farqlar ko‘rinadi”. [2.77-b.]

ADABIY TIL	TOSHKENT	SAMARQAND, BUXORO	FARG‘ONA
Sigir	Siyr	Inak	Sgr (mol)
Mushuk	Mushuv	Pshak	Mshq
Chumoli	Chumol	Murcha	Chumali

O‘zbek sahna nutqi fani asoschilaridan biri, professor Lola Xo‘jayevaning tadqiqotlarida ham aynan adabiy til me‘yorlari aks etgan. Unga tayangan holda ba’zi so‘zlarning hududiy joylashuvda qanday jaranglashini keltiramiz: [3. 129-b.]

O‘ZBEK TILI ORFOGRAFIYASIDA: kelinglar, kelayotgan, aytinglar, boramiz
TOSHKENTCHA: kelila, kevtotgan, etila, borovza
ANDIJONCHA: keliylar, kelyotgon, aytiylar, boramz
SAMARQANDCHA: kelizla, keleytiken, aytizla, boramz
XORAZMCHA: galingla, galyotgan, atiyula, borenz
ADABIY TIL ME‘YORLARIDA: kelilar, kelyotgan, aytilar, boramz

Yuqorida ayrim so‘zlarning talaffuzi hududlarga xos jaranglashini kuzatdik. Ko‘rinib turibdiki, poytaxt teatrlarida bo‘ladimi yoki viloyat teatrlaridami farqi yo‘q. Umuman teatrda faoliyat olib borayotgan aktyorlar talaffuzda adabiy til me‘yorlariga amal qilishi va bu orqali xalqimizning milliy til haqidagi tushunchalarini boyitishi muhimdir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, aktyorning talaffuzi adabiy til me‘yorlariga bo‘ysungan holda ifoda etilmog‘i lozim. Buning uchun teatr aktyorlari bilan sahna nutqi pedagoglari o‘rtasida hamkorlik o‘rnatilishi kerak. Har bir teatrning o‘ziga tegishli sahna nutqi mutaxassisi, xodimi bo‘lishi zarur. Ana shundagina, o‘zbek tilining nufuzini yanada oshirish bo‘yicha samarali ish yuzaga chiqadi.

Takliflarga kelsak, birinchi navbatda, talaffuzni shevadan tozalash kerak. Bu yo‘lda 6 ta unli harflar mashqi (I, E, A, O, O‘, U) eng foydali ishdir. Mashq orqali unli tovushlar jarangi to‘g‘rilanadi. Bir qarashda juda keraksiz yoki umuman foydasiz mashq bo‘lib ko‘rinishi mumkin, lekin bajarib ko‘rish orqali uning ahamiyatini sezasiz. Eng muhimi, talaffuzingizda sheva unsurlari yo‘qoladi.

Ikkinchidan, talaffuzda undoshlar ifodasining aniq o‘rnini topish muhimdir. Misol uchun, ko‘pchilikda uchraydigan S, Z tovushlarining joylashuv o‘rni haqida

aniq tushunib olish zarur. S undoshi til tepaga ko'tarilgan, ammo til uchi hech qayerga tegmagan holatda, tishlar bir-biriga tegar-tegmas turibdi. Nafas oqimi esa sirg'alib, mana shu artikulyatsiya joylashuvining teshiklaridan o'tadi. Natijada sirg'aluvchi S tovushi paydo bo'ladi.

Z undoshida esa til to'g'ri va uning uchi hech qayerga tegmagan, orqa tishlar bir-biriga tekkan va oldi tishlar jips bo'lmagan holatda, nafas oqimi mana shu artikulyatsiya joylashuvining teshiklaridan chiqishi natijasida paydo bo'ladi. Natijada, kichik tebranish vibratsiya hosil qiladi.

Yuqoridagi undoshlar talaffuzi kabi ko'p uchraydigan boshqa undoshlar (M, N, L, R, T, D, K, G, P, B, F, V, SH, CH) mashqlarini ham anglagan holda mashqlarni olib borish tavsiya etiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. I. Po'latov. Sahna nutqi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994;
2. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'rta va oliy maktab nashriyoti, 1961;
3. Записки Ташкентского театрально-художественного института, выпуск 3-й, 1959 г.